

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasida 2022-yil 3-chorak uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT

I. Tashkilotning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to'g'risida umumiy axborot

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-146-sonli qarori 2-bandi 2-ilovasiga asosan markaziy apparat tuzilmasining Inson resurslari va komplayens nazorati bo'limi tarkibida 1 ta komplayens nazorati bo'yicha bosh mutaxassis lavozimi joriy etildi.

2022 yil 7 aprel kuni Qo'mitaning 19-sonli buyrug'iga asosan Inson resurslari va komplayens nazorati bo'limi bosh mutaxassisi (*komplayens nazorati bo'yicha*) lavozimi jamlandi.

Komplayens nazorati bosh mutaxassisi tomonidan 2022 yil 2-chorak davomida amalga oshiriladigan 14-banddan iborat chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, 2022 yil 19 aprel kuni Qo'mita raisi tomonidan tasdiqlandi.

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisi rahbarligida qonunchilik va xizmat intizomini mustahkamlash, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt oldini olish, qo'mita faoliyati ochiqligi va shaffofligini ta'minlash bo'yicha quyidagi mavzularda yig'ilishlar o'tkazildi, jumladan:

- 2022 yil 30 may kuni 1-sonli (***kun tartibi:** Qo'mita tizimida mehnat va xizmat intizomini mustahkamlash va qonunchilikka qat'iy rioya qilishni yanada kuchaytirish*);

- 2022 yil 1 iyul kuni 2-sonli (***kun tartibi:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 iyundagi PF-154-son Farmoni ijrosini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash*);

- 2022 yil 23 avgust kuni 3-sonli (***kun tartibi:** O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi raisi T.Narbayeva boshchiligida 2022 yil 17 avgust kuni o'tkazilgan majlisning 8-sonli Bayoni ijrosini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash*) yig'ilish bayonlari rasmiylashtirildi va hududiy bo'linmalarga yuborildi.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Mazkur rejada belgilangan chora-tadbirlarga muvofiq, qo'mita komplayens nazorati bosh mutaxassisi faoliyati to'g'risida Nizom va Qo'mita tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan 11 ta ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqildi va qo'mita raisining 2022 yil 29 apreldagi 16-sonli buyrug'i bilan tasdiqlandi.

2022 yil 29 aprel kuni Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisining 15-sonli buyrug'iga asosan Qo'mita tizimi xodimlarining Odob-axloq qoidalari tasdiqlandi va qo'mita apparati xodimlari tanishtirilib, imzo chekildi.

Inson resurslari va komplayens nazorati bo'limi tomonidan mehnat va qonunchilikka oid hujjatlar bilan tanishtiruv varag'i tayyorlandi hamda qo'mita markaziy apparati xodimlari tanishtirilib, tanishganligi haqida imzo qo'yildi.

Tanishtiruv varag'i bo'yicha xodimlar quyidagi tartib-taomillar bilan tanishtirildi:

- lavozim yo'riqnomasi;
- ichki mehnat tartibi qoidalari;
- jamoat shartnomasi;
- odob-ahloq qoidalari;
- mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnoma;
- qo'mitaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati;
- qo'mita va uning hududiy bo'linmalari xodimlari hamda mahalladagi xotin-qizlar faollari ish faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha nizom;
- qo'mitada Korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarining asosiy shartlari.

Qo'mitaning hududiy bo'linmalari bilan birgalikda tashkil etilgan "Inson resurslari bo'limi" nomli ijtimoiy telegramm guruhiga quyidagi tartib-taomillar:

- odob-ahloq qoidalari;
- qo'mitaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati;
- qo'mita va uning hududiy bo'linmalari xodimlari hamda mahalladagi xotin-qizlar faollari ish faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha nizom;
- qo'mitada Korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarining asosiy shartlari joylashtirildi va Qoraqalopog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar Oila va xotin-qizlar boshqarmalari, tuman-shahar Oila va xotin-qizlar bo'limlari xodimlarining tanishtirilishi hamda tanishganligi haqida imzolangan ma'lumotlari jamlanishi ta'minlandi.

III. Xavf-xatarlarni baholash

Qo'mita tizimi xodimlarining funksional vazifalaridan kelib chiqqan holda quyidagi tuzilmalar xodimlari lavozimlari bo'yicha:

- markaziy apparat xizmatlar ko'rsatish va moliyaviy ta'minot bo'limi (*Bo'lim boshlig'i-bosh hisobchisi, hisobchi*);
- xalqaro aloqalar bo'yicha bosh mutaxassisi;
- Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi (*Direksiya ijrochi direktori, hisobchi*);
- "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti (*Institut direktori, institut hisobchisi*);
- Ayollarni rehabilitasiya qilish va moslashtirish respublika markazi (*Markaz direktori, institut hisobchisi*);
- Tumanlar va shaharlar oila va xotin-qizlar bo'limlarida (*Mahalladagi xotin-qizlar faollari*) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni sodir etishga moyilligi bo'yicha **yuqori toifada** baholash ro'yxati tayyorlandi va ushbu lavozimdagi xodimlar bilan suhbatlar o'tkazildi.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasida hisobot davrida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirgan xodimlar quyidagicha;

- yilliy deklaratsiyani to'ldirgan xodimlar soni 33 ta;
- ishga qabul qilishdagi deklaratsiyani to'ldirganlar soni 33 ta;
- lavozimi o'zgarganda deklaratsiya to'ldirganlar soni 6 tani tashkil etadi.

Mazkur deklaratsiya to'ldirgan xodimlar bilan suhbat o'tkazildi va o'rganib chiqildi, biroq ular orasida manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligi aniqlandi.

Deklaratsiya to'ldirgan xodimlar lavozimlari bo'yicha quyidagicha toifalandi:

- markaziy apparat boshqarma, o'rinbosari va bo'lim boshliqlari soni 12 ta;
- markaziy apparat bosh va yetakchi mutaxassislar soni 21 tani tashkil etdi.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarini Tashkilot sharnomalariga kiritish

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tizimida Korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarining asosiy shartlari ishlab chiqildi va markaziy apparat hisobchilari bilan suhbat o'tkazilib, quyidagi mazmunda ogohlantirish xatlari imzolanib olindi:

Moliyaviy ta'minot xodimlari – Qo'mita nomidan xaridlarni amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi, shaxsiy manfaatdorlik bilan bog'liq harakatlarni olib bormasligi, insofsiz shartnomalarni tuzmasligi shart.

Shuningdek, quyidagilarga qat'iy rioya qilishi, jumladan:

- xaridlarni amalga oshirishdan avval, **TA'MINOTCH**ning mahsulotni sifatli va belgilangan muddatda yetkazib berish imkoniyatiga ega ekanligiga ishonch hosil qilishi;

- xaridlarni amalga oshirish bo'yicha shartnomada belgilangan o'z majburiyatlarini bajarishi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan xatti-harakatlar yoki harakatsizliklarga yo'l qo'ymasligi;

- shartnoma tomonlarining xodimlariga rag'batlantirish tariqasida pul berish, sovg'alar taqdim etish, ular uchun beg'araz xizmatlar ko'rsatishga yo'l qo'ymasligi;

- korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishi ehtimoli yuzaga kelganda, amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organlarga xabar berishi shart.

Kontragentlarni tekshirish

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisi tomonidan 2022 yil 19 aprel kuni tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasining 10-bandi talablariga muvofiq Qo'mita nomidan xaridlarni amalga oshiruvchi xodimlarda manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini, shaxsiy manfaatdorlik bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirilishini yoki insofsiz shartnomalar tuzilishini oldini olish maqsadida Xizmatlar ko'rsatish va moliyaviy ta'minot bo'limi tomonidan rasmiylashtirilgan 33 ta shartnomalar va hujjatlar o'rganildi.

Mazkur o'rganish bo'yicha belgilangan namunada: Xo'jalik shartnoma mazmuni, pudratchi, Lot/shartnoma raqami kiritilgan jadval tayorlandi.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalari kesimida tashkilot tizimiga ishga kirish uchun nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar sonini ko'rsatiladi.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tizimi xodimlari o'z xizmat vazifalarini amalga oshirishida qonunlar va me'yoriy hujjatlar talablariga qat'iy rioya qilishi va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligini ta'minlash maqsadida qo'mita tizimi tashkil etilgan dastlabki davrdanoq, xodimlarning huquqiy bilimi va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha o'quv-seminar mashg'ulotlari tashkil etildi.

Jumladan:

- joriy yilning 6-9 aprel kunlari markaziy apparat xodimlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshliqlari ishtirokida;

- 11-14 aprel kunlari respublikaning barcha tuman-shahar Oila va xotin-qizlar bo'limi boshliqlari ishtirokida;

- 25-30 aprel kunlari respublikaning barcha mahallalardagi xotin-qizlar faollari ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professor-o'qituvchilari, shuningdek tizim bilan hamkorlikda faoliyat yurituvchi vazirliklar rahbarlari tomonidan o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasining mas'ul xodimlari hamda Oila va xotin-qizlar ilmiy tadqiqot instituti mutaxassislaridan iborat ishchi guruhi tashkil etilib, 2022 yil 20 iyundan 10 iyulga qadar respublika bo'ylab, qo'mita tizimidagi barcha xodimlar o'rtasida qonun va qonunosti me'yoriy hujjatlarning mazmun-mohiyati, ularni amaliyotga tatbiq etish tartiblari, xizmat faoliyatida manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik mavzularida ma'ruzalar o'qilib, keng qamrovli targ'ibot va tushuntirish ishlari olib borildi.

Joriy yilning 13-14 iyul kunlari O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tashabbusi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshliqlari ishtirokida **“O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishda ayollarning rolini kuchaytirish va faolligini oshirish”** mavzusida seminar-treninglar o'tkazildi.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish maqsadida Andijon viloyatining 4 ta tumani, Farg'ona viloyatining 3 ta tumani va Surxondaryo viloyatining 11 ta tumani, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Yoshlar agentligi vakillari bilan birgalikda Xorazm viloyatining 2 ta tumani, Buxoro viloyatining 2 ta tumani, Navoiy viloyatining 2 ta tumani, Qashqadaryo viloyatining 2 ta tumani, Toshkent viloyatining 2 ta tumani, Toshkent shahrining 2 tumanining mahalladagi xotin-qizlar faollari, hokim yordamchisi va Yoshlar yetakchilari o'rtasida qonun va qonunosti me'yoriy hujjatlarning mazmun-mohiyati, ularni amaliyotga tatbiq etish tartiblari, xizmat

faoliyatida manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik mavzulari bo'yicha targ'ibot va tushuntirish ishlari olib borildi.

Asosiy e'tibor qonunbuzilish va korrupsiyaviy holatlarga yo'l qo'ymaslik ya'ni, uy-joy olishga yoki uy-joyini ta'mirlashga, jarrohlik yo'li bilan tibbiy davolanishga, kredit yoki subsidiya olishga, "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", "Temir daftari"ga kiritishga, oliy ta'lim muassasalariga tavsiyanoma berishda va normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan boshqa qonuniy imtiyozlarni olishga muhtoj bo'lganlar ro'yxatini shakllantirishda tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik, mahalliychilik yoki boshqa manfaatlar evaziga rasmiylashtirmaslik, aksincha adolat mezonida va qonun doirasida amalga oshirilishi haqida tushuntirishlar berildi.

Respublikaning 30 ta tuman-shaharlarida manzilli targ'ibotlar o'tkazilishi natijasida 2000 ga yaqin xizmatchilarning korrupsiyaga qarshi bilimi va ko'nikmasi oshirilishiga erishildi.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'risidagi xabarlar

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari uchun sharoit yaratish maqsadida rasmiy veb-sayt <https://wcu.uz/oz>; ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa <https://t.me/+wRbRNZx9BdIiMjFi>; ishonch telefoni 71.202-10-83; elektron manzil b.saidqosimov@wcu.uz rasmiy veb-sayt <https://wcu.uz/oz> ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasi, shuningdek E-mail:m.egamberdiyeva@exat.uz va E-mail:wcudevonxona@exat.uz elektron manzili, hamda korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlarni keng havola qilish maqsadida alohida Rasmiy veb-saytda <https://wcu.uz/oz/pages/view/anticorruption> kabi aloqa kanallari tashkil etildi.

2022 yil 11 mayda Surxondaryo viloyati Termiz shahar "Guliston" mahallasi, Farovon ko'chasi 29-uyda yashovchi Qo'ldosheva Nazokatning Surxondaryo viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasida bo'sh lavozimlarga nomzodlarni saralash jarayonida adolatsizlik va tanish-bilishchilik kabi salbiy holatlarga yo'l qo'yilayotganligi hamda Surxondaryo viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i Z.Xidirova qabuliga kirib, boshqarma xodimi Qodirov Umidning nojo'ya xatti-harakatlari haqida ma'lum qilishiga qaramasdan unga nisbatan chora ko'rilmayotganligidan norozi bo'lib yo'llagan bevosita murojaati bo'yicha xizmat tekshiruvi o'tkazilgan.

O'rganish natijasiga ko'ra, bo'sh lavozimlar bo'yicha o'tkazilgan ochiq tanlovda Tanlov komissiyasi tomonidan N.Qo'ldoshevaning nomzodi uning ma'lumoti malakaviy talablarga mos kelmagani uchun (tugallanmagan oliy) rad etilgani va tuman-shahar bo'limlari bo'sh lavozimlari bo'yicha ikkinchi marotaba o'tkazilgan ochiq tanlovga hujjatini topshirmagani uchun ishtirok etmagani va uning bandligi ta'minlanmaganligi, shuningdek boshqarma xodimi Qodirov Umidning nojo'ya xatti-harakatlari haqidagi ma'lumotlar o'z tasdig'ini topmaganligi aniqlandi.

2022 yil 30 iyunda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tizimidagi xotin-qizlar bilan bog'liq tuzilmalar (*hozirda Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tizimida*) tomonidan oila va xotin-qizlar

yoʻnalishida ishlar tizimli tashkil qilinmaganligi oqibatida kam taʼminlangan va imkoniyati cheklangan xotin-qizlarga uy-joy va subsidiyalar berish hamda sohaga ajratilgan byudjet mablagʻlaridan foydalanishda qonun buzilish holatlariga yoʻl qoʻyilgani haqida kelib tushgan maʼlumoti oʻrganib chiqildi.

Oʻrganish natijasiga koʻra, mazkur qonunbuzilish holatlari boʻyicha 5 nafar xodimga nisbatan “Xayfsan” intizomiy jazosi qoʻllanildi hamda kelgusida xato va kamchiliklar takroran yuzaga kelsa, mehnat qonunchiligi boʻyicha chora koʻrilishi haqida 8 nafar xodimlar qatʼiy ogohlantirildi.

VII. Monitoring va nazorat

Oila va xotin-qizlar davlat qoʻmitasi markaziy apparati va Qoraqalpogʻiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi, viloyatlar va Toshkent shahar Oila va xotin-qizlar boshqarmalari hamda tuman-shahar Oila va xotin-qizlar boʻlimlari xodimlarining “Inson resurslari boʻlimi” nomli ijtimoiy telegramm guruhiga joylashtirilgan quyidagi:

- odob-ahloq qoidalari;
- qoʻmitaning korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha siyosati;
- qoʻmita va uning hududiy boʻlinmalari xodimlari hamda mahalladagi xotin-qizlar faollari ish faoliyatida manfaatlar toʻqnashuvini oldini olish boʻyicha nizom;
- qoʻmitada Korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarining asosiy shartlari kabi korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi tekshirildi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga taʼsir choralari

2022 yil 11 mayda Surxondaryo viloyati Termiz shahar “Guliston” mahallasi, Farovon koʻchasi 29-uyda yashovchi Qoʻldosheva Nazokatning Surxondaryo viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasida boʻsh lavozimlarga nomzodlarni saralash jarayonida adolatsizlik va tanish-bilishchilik kabi salbiy holatlarga yoʻl qoʻyilayotganligi hamda Surxondaryo viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshligʻi Z.Xidirova qabuliga kirib, boshqarma xodimi Qodirov Umidning nojoʻya xatti-harakatlari haqida maʼlum qilishiga qaramasdan unga nisbatan chora koʻrilmayotganligidan norozi boʻlib yoʻllagan murojaati boʻyicha xizmat tekshiruvi oʻtkazilgan.

Oʻrganish natijasiga koʻra, boʻsh lavozimlar boʻyicha oʻtkazilgan ochiq tanlovda Tanlov komissiyasi tomonidan N.Qoʻldoshevaning nomzodi uning maʼlumoti malakaviy talablarga mos kelmagani uchun (tugallanmagan oliy) rad etilgani va tuman-shahar boʻlimlari boʻsh lavozimlari boʻyicha ikkinchi marotaba oʻtkazilgan ochiq tanlovga hujjatini topshirmagani uchun ishtirok etmagani va uning bandligi taʼminlanmaganligi, shuningdek boshqarma xodimi Qodirov Umidning nojoʻya xatti-harakatlari haqidagi maʼlumotlar oʻz tasdigʻini topmaganligi aniqlandi.

2022 yil 30 iyunda Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash vazirligi tizimidagi xotin-qizlar bilan bogʻliq tuzilmalar (hozirda Oila va xotin-qizlar davlat qoʻmitasi tizimida) tomonidan oila va xotin-qizlar yoʻnalishida ishlar tizimli tashkil qilinmaganligi oqibatida kam taʼminlangan va imkoniyati cheklangan xotin-qizlarga uy-joy va subsidiyalar berish hamda sohaga

ajratilgan byudjet mablag'laridan foydalanishda qonun buzilish holatlariga yo'l qo'yilgani haqida kelib tushgan ma'lumoti o'rganib chiqildi.

O'rganish natijasiga ko'ra, mazkur qonunbuzilish holatlari bo'yicha 5 nafar xodimga nisbatan "Xayfsan" intizomiy jazosi qo'llanildi hamda kelgusida xato va kamchiliklar takroran yuzaga kelsa, mehnat qonunchiligi bo'yicha chora ko'rilishi haqida 8 nafar xodimlar qat'iy ogohlantirildi.

IX. Xulosalar

Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tizimi xodimlari quyidagi tartib-taomillar bilan, ya'ni:

- lavozim yo'riqnomasi;
- ichki mehnat tartibi qoidalari;
- jamoat shartnomasi;
- odob-ahloq qoidalari;
- mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnoma;
- qo'mitaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati;
- qo'mita va uning hududiy bo'linmalari xodimlari hamda mahalladagi xotin-qizlar faollari ish faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha nizom;

- qo'mitada Korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarining asosiy shartlari kabi yo'riqnomalar bilan tanishtirilishi, shuningdek, qo'mitaning hududiy bo'linmalari bilan birgalikda tashkil etilgan "Inson resurslari bo'limi" nomli ijtimoiy telegramm guruhiga quyidagi tartib-taomillar:

- odob-ahloq qoidalari;
- qo'mitaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati;
- qo'mita va uning hududiy bo'linmalari xodimlari hamda mahalladagi xotin-qizlar faollari ish faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha nizom;

- qo'mitada Korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarining asosiy shartlari joylashtirilishi va Qoraqalopog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar Oila va xotin-qizlar boshqarmalari, tuman-shahar Oila va xotin-qizlar bo'limlari xodimlarining tanishtirilishi hamda tanishganligi haqida imzolangan ma'lumotlari jamlanishi natijasida tizim xodimlari tomonidan qonunbuzilish holatlari qayd etilmadi.

Shuningdek, respublikaning 30 ta tuman-shaharlarida manzilli targ'ibotlar o'tkazilishi natijasida 2000 ga yaqin xizmatchilarning korrupsiyaga qarshi bilimi va ko'nikmasini oshirilishiga erishildi.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tarkibiy tuzilmasida markaziy apparat Inson resurslari va komplayens nazorati bo'limida komplayens nazorati yo'nalishi bo'yicha 1 ta (bosh mutaxassis) lavozim mavjud bo'lib, hududiy bo'linmalariga komplayens nazorati bo'yicha shtat ajratilmagan.

Shu munosabat bilan, qo'mita tizimining xududiy bo'linmalariga (*Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar Oila va xotin-qizlar boshqarmalari*) komplayens nazorati bo'yicha 1 tadan shtat ajratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni olib borilishi belgilab olindi, jumladan:


- tashkilotga kelib tushgan har qanday murojaat yoki ma'lumotlarni tahlil qilish va o'rganib, qonuniy tartibda ijrosini ta'minlash, shuningdek murojaatlar yoki ma'lumotlarni o'z vaqtida qabul qilmagan holatlar aniqlansa, mas'ul bo'lgan shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko'rish;

- hududiy Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi filiallari ishtirokida ishga qabul qilinayotgan nomzodlar bilan ochiq tanlov asosida xaqqoniy suhbat o'tkazilishini ta'minlash va suhbatlar jarayonlarini videoyozuvga olinishini nazorat qilish;

- lavozimga da'vo qilgan fuqarolarni ichki idoraviy hujjatlar bilan tanishtirish, ular bilan suhbat o'tkazish va tegishli blanklar to'ldirilishini ta'minlash;

- xotin-qizlarga belgilangan imtiyozlarni me'yo'riy hujjatlar talablariga muvofiq ravishda amalga oshirilishi bo'yicha qo'shimcha tushuntirishlar olib borish, monitoring yuritish va bevosita ushbu yo'nalishga mas'ul bo'lgan xodimlarni javobgarlik yuzasidan ogohlantirish haqida yozma tilxatlar olinishi belgilandi.

**Komplaens nazorati bo'yicha
bosh mutaxassis**


30.09.2024

B.Saidqosimov

**Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasining korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni
ko‘rib chiqish natijalari haqida 2022 yilning 9 oylik
HISOBOTI**

1. Umumiy ma‘lumot

Joriy yilning 9 oyi davomida Qo‘mitaga 2 ta korrupsiyaga doir murojaatlar kelib tushdi.

1. Surxondaryo viloyati Termiz shahar “Guliston” mahallasi Farovon ko‘chasi 29-uy fuqaro Qo‘ldosheva Nazokat Qahhorovnaning Surxondaryo viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Qodirov Umid Zokirovichga nisbatan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi xodimlariga nisbatan.

2. Ko‘rib chiqish natijalari

Fuqaro N.Qo‘ldoshevaning, Surxondaryo viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasidagi bo‘sh lavozimlarga nomzodlarni saralash jarayonida adolatsizlik va tanish-bilishchilik kabi salbiy holatlarga yo‘l qo‘yilayotganligi hamda Surxondaryo viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Qodirov Umid Zokirovichning nojo‘ya xatti-harakatlari haqida bildirgan murojaati yuzasidan:

- bo‘sh lavozimlar bo‘yicha o‘tkazilgan ochiq tanlovda komissiya tomonidan N.Qo‘ldoshevaning nomzodi uning ma‘lumoti malakaviy talablarga mos kelmagani uchun (tugallanmagan oliy) rad etilgani va tuman-shahar bo‘limlari bo‘sh lavozimlariga ikkinchi marotaba ochiq tanlov o‘tkazilganda hujjatlarini topshirmagani uchun ishtirok etmagani va uning bandligini ta‘minlanmagani ma‘lum bo‘ldi.

- boshqarma xodimi Qodirov Umid Zokirovichning nojo‘ya xatti-harakatlari haqidagi ma‘lumotlar o‘z tasdig‘ini topmadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tizimidagi xotin-qizlar bilan bog‘liq tuzilmalar (hozirda Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tizimida) tomonidan oila va xotin-qizlar yo‘nalishida ishlar tizimli tashkil qilinmaganligi oqibatida kam ta‘minlangan va imkoniyati cheklangan xotin-qizlarga uy-joy va subsidiyalar berish hamda sohaga ajratilgan byudjet mablag‘laridan foydalanishda qonun buzilish holatlariga yo‘l qo‘yilgani haqidagi xati yuzasidan:

- uy-joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta‘minlash masalasiga yetarli e‘tibor qaratilmaganligi, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 martdagi PQ-5020-sonli qaroriga muvofiq ipoteka kreditlari bo‘yicha boshlang‘ich badallarni to‘lab berish va ijtimoiy uy-joylarni sotib olish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan 15 mlrd.so‘m ajratilganoigi, biroq ushbu mablag‘lar xaqiqiy ehtiyoj to‘liq o‘rganilmasdan, hududlar kesimida noto‘g‘ri taqsimlangani;

- Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 28 apreldagi 250-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ayollar daftari”ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tartibiga ko‘ra, “Ayollar daftari”ga 30 yoshdan toshgan xotin-qizlar kiritilishi belgilangan bo‘lishiga qaramasdan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida yuqoridagi talablar buzilgan holda 2021 yilda 63 nafar va joriy yilda 11 nafar 30 yoshga to‘lmagan xotin-qizlar “Ayollar daftari”ga assosiz kiritilgani;

- “Ayollar daftari” jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanishda qator qonun buzilish va talon-tarojliklarga yo‘l qo‘yilgani ma‘lum bo‘ldi.

Mazkur qonunbuzilish holatlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi bilan birgalikda o‘rganib chiqildi va 5 nafar xodimga nisbatan “Xayfsan” intizomiy jazosi qo‘llanildi,

shuningdek, kelgusida xato va kamchiliklar takroran yuzaga kelsa, mehnat qonunchiligi bo'yicha chora ko'rilishi haqida 8 nafari qat'iy ogohlantirildi.

3. Minimallashtirish choralari

Mazkur holatlarni oldini olish maqsadida Qo'mita markaziy apparati va hududiy bo'linmalarga quyidagi mazmunda ko'rsatma yuborildi.

Jumladan:

- ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni hududiy Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi filiallari bilan birgalikda ochiq tanlov asosida va har bir nomzod bilan o'tkazilgan suhbat jarayonlarini videoyozuvga olib borilishini yanada kuchaytirish lozimligi;

- xotin-qizlarga belgilangan imtiyozlarni me'riy hujjatlar talablariga muvofiq ravishda amalga oshirilishi bo'yicha qo'shimcha tushuntirishlar olib borilishi va bevosita ushbu yo'nalishga mas'ul bo'lgan xodimlarni javobgarlik yuzasidan ogohlantirish haqida yozma tilxatlar olinishi belgilandi.

**Komplaens nazorati bo'yicha
bosh mutaxassis**



B.Saidqosimov